

## **GLOBALLASHUVNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA NAMOYON BO'LISH YO'LLARI**

*Sulaymonov Abdulhamid*

*Qo'chqarov Dilshod*

*Jdpu, Maktab menejmenti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada "ommaviy madaniyat" tahdidlarining yoshlar ma'naviy ongiga salbiy ta'siri va uning oqibatlari haqida batafsil yoritilgan. Shuningdek, unda globallashuv jarayonlarida "ommaviy madaniyat" tahdidlarining oldini olish yo'llari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, g'oya, jarayon, mafkura, ommaviy madaniyat, o'quvchi-yoshlar, yoshlar tarbiyasi, ta'sir, vositalar.

**Аннотация:** В статье подробно описано негативное влияние угроз «массовой культуры» на духовное сознание молодежи и его последствия. Также описаны пути предотвращения угроз «массовой культуры» в процессе глобализации.

**Ключевые слова:** глобализация, идея, процесс, идеология, массовая культура, студенты, образование молодежи, влияние, инструменты.

**Abstract:** The article describes in detail the negative impact of threats of "mass culture" on the spiritual consciousness of young people and its consequences. It also describes ways to prevent the threats of "mass culture" in the process of globalization.

**Key words:** globalization, idea, process, ideology, mass culture, students, youth education, influence, tools.

Bugungi kunda jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtaida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda. Shuning

uchun ham milliy madaniyat namunalarini rivojlantirish asosiy vazifa bo‘lgan hozirgi sharoitda chetdan kirib kelayotgan, salbiy xarakterga ega bo‘lgan mafkuraviy tahdidlar xavfini o‘z vaqtida bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda jahonning aksariyat mamlakatlarida milliy madaniyat ildizlarini yemiruvchi, yoshlarni axloqsizlik g‘oyalari sari ergashtiruvchi, ularning ma’naviy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi “ommaviy madaniyat” tahdidlarining salbiy ta’siri ancha kuchaygan. Mazkur holat yoshlarni yot g‘oyalari ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavfxatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash hamda jamiyatda uzlusiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish va joriy etishni talab etmoqda. Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatining asosiy e’tibori globallashuv jarayonlari va “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlarining oldini olish muammolariga qaratilgan. Jumladan, ommaviy madaniyat va ommaviy ongning ijtimoiy-falsafiy tahlili; zamонавиј jamiyatda ommaviy madaniyat; nazariy tahlil va amaliy xulosalar; globallashuv jarayonida ommaviy madaniyatning kirib kelishi, tuzilishi va ijtimoiy vazifalari talqini kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi tadqiqot markazlari va institutlari tomonidan ommaviy madaniyatning paydo bo‘lish tarixi hamda uning rivojlanish bosqichlari, davrlar o‘tishi bilan ijobiy tomonlaridan ko‘ra salbiy jihatlarining ko‘payishi va kelajak avlod tarbiyasiga putur yetkazish holatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy madaniyat va ma’naviyatni yuksaltirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Milliy qadriyatlarimiz tiklandi, milliy san’at va ijod sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayni paytda, xalqimiz faolligini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi yurtimizda milliy madaniyat yuksalayotgani hamda mafkuraviy tahidlarning oldini olish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ma’ruzalari va asarlarida bayon qilingan global tahdid va xatarlar, jumladan, “ommaviy madaniyat” tahdidlarining oldini olishga oid konseptual g‘oyalar, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bayon etilgan konseptual g‘oyalar mazkur maqolani yozish uchun ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Sharq mentalitetida azal-azaldan odob-axloq qoidalariga jiddiy e’tibor qaratilganligi “ommaviy madaniyat” tahdidlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mentalitetida jamoaviylik, insonlarning bir-biriga mehr-oqibati, axloqiy-ma’naviy masalalar yetakchi o‘rinda tursa, “ommaviy madaniyat” o‘z ichiga individualizm hamda egotsentrizm g‘oyalarining eng tuban va me’yordan ortiq jihatlarini singdirib, axloqiy yetuklikni oxirgi o‘ringa tushirib qo‘yadi. Shuning uchun ham milliy madaniyatning “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashda ratsional ahamiyat kasb etadigan asoslarini buyuk mutafakkir bobolarimiz Imom Buxoriy, Imom Termizi, Mahmud Zamashshariy, Najmuddin Kubro, Aziziddin Nasafiy, Abu Mu’in Nasafiy, Abdusaliq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Zangi ota, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari asosida atroflicha o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotini asl xalq madaniyati va milliylikka begona bo‘lgan jihatlar ko‘proq tashkil etadi. Globallashuv jarayonlari natijasida ijobiy jihatlar bilan birga mafkuraviy tahdidlar ham keng yoyilmoqda. Bu, o‘z navbatida, millat yoshlari va milliy madaniyatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mazkur muammoni chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Hozirgi global o‘zgarishlar sharoitida mafkuraviy kurash va nizolar kuchayib borgani sayin uning yangidan-yangi turlari ommalashib bormoqda. Bugungi kundagi global tahdid va xatarlar haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida shunday yozadi: “Afsuski, bugungi kunda barchamiz mazkur ijobiy jarayonga to‘sinqilik qilayotgan murakkab va ziddiyatli tendensiyalar mavjudligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Bu o‘rinda so‘z jahonda, jumladan, Janubi-Sharqiy

Osiyodan tortib Yaqin Sharqqacha bo‘lgan makonda qurolli to‘qnashuvlar kuchayib, o‘zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlararo va konfessiyalararo ixtiloflar chuqurlashib borayotgani, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar paydo bo‘layotgani haqida bormoqda ... Ayni paytda islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur ... Nafaqat yoshlар, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilnm-ma’rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va, albatta, to‘g’ri yo‘ldan adashish bo‘ladi ... Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzlucksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”. “Ommaviy madaniyat”ning targ‘ibotchi va homiyulari, ularning ortida turgan kuchlar katta mablag‘ va zamonaviy qurol-aslahalarga, ilg‘or texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlariga ega. Lekin ular soxta “gumanizm” g‘oyalariga burkanib, zimdan eng xavfli uslub, insonning ongini egallashga intilmoqdalar. Ularning bu tutgan uslubi milliy qadriyatlarimizga to‘g’ri kelmaydigan, ayniqsa, yosh avlodning ongi va tafakkurini zaharlaydigan buzg‘unchi mafkuradir. Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatning ma’naviy-mafkuraviy sohasida “ommaviy madaniyat”ga, u olib kelayotgan ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlariga qarshi kurashish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish doirasida quyidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazib boorish lozim, deb hisoblaymiz:

Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi noxolis axborotlarga qarshi aholi, ayniqsa yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va jamoatchilikda muayyan holatlar haqida haqqoniy fikr shakllanishiga ko‘maklashish; ularni axborot texnologiyalari yangiliklari bilan tanishtirish uchun qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etish;

Internet maydonida ichki va tashdi tahdidlarga samarali qarshi kurashishni ta’minalash maqsadida “Internet maydonidagi ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi

kurashishning usullari”, “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan buyuk allomalar” kabi mavzularda davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish;

“Jamiyatda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi ijtimoiy profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish;

Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish, jamiyatdagi jiipslik va mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda xorijiy davlatlar, xususan Germaniya, Turkiya va Yaponiya davlatlari tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalanish;

turli roliklar tayyorlash, bosma targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

“Biz ma’rifatli islom tarafdorimiz!” shiori ostida turkum chora-tadbirlarni amalga oshirish va h.k. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, jamiyat rivojlanib borar ekan, uning barqarorligi va rivoji, albatta, har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli komil insonlarga bog‘liq. Shuning uchun insoniyat taraqqiyotining butun ongli davri jamiyatda barkamol insonlarni tarkib toptirishga intilish jarayonlaridan iborat bo‘lgan. Komil insonlarni tarbiyalashda jamiyat ma’naviy hayotiga katta e’tibor berish va insonlar ongini zaharlovchi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish darkor. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida “ommaviy madaniyat” tahdidlarining oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etib, mazkur muammoni hal etishning yangicha yondashuv va samarali yo‘llarini izlab topishni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. FTAI Jild: 04 | Nashr: 03 | May 2023 “BILIG – ILMIY FAOLIYAT” nashri <http://journal.bilik>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnama. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, 272-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. №439-II, 12.12.2002.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar, PF60-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2019-yil 3-may, PQ4307-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son.
9. Madrahimova F. “Ommaviy madaniyat” va uning mafkuraviy tahdid sifatidagi talqini. //Ilm sarchashmalari. № 3. 2013. 54-60-b.
10. Qudratxo‘jayev Sh.T. Global tarmoqning media imkoniyatlari. O‘zbekiston matbuoti, 2010-yil 1-son